



## Mavzu: Odam bosh tasvirini qalamtasvirda soddalashtirilgan usullarda chizishni o'rganish

Andijon Davlat Pedagogika instituti “Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrasi stajiyor o’qituvchisi

Abdurasulova Barno Avazbekovna

**Annotatsiya:** Qalamtasvir – barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi. Talaba o‘zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan tasvirlaydi va ifodalaydi. San’at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Men ushbu maqolamda odam bosh tasvirini qalamtasvirda soddalashtirilgan usullarda bosqichma –bosqich chizishni o’rganishni yoritib berishga xarakat qildim.

**Annotation:** Pencil drawing is the basis of all visual arts. The student describes and expresses his observations, researches on the compositions of large works first with the initial pencil drawings. And when creating works of art, there completed lines serve as a helpful resource for the artist. In this article, I tried to explain how to learn how to draw a human head in pencil step by step in simplified ways.

**Аннотация:** Рисунок пером является основой всех изобразительных искусств. Учащийся сначала описывает и выражает свои наблюдения и изыскания по композиции больших произведений с исходными рисунками на холсте. И при создании художественных произведений эти завершенные линии служат для художника вспомогательным ресурсом. В этой статье я попытался объяснить, как научиться рисовать голову человека карандашом поэтапно упрощенными способами.

**Kalit so’zlar:** qalamtasvir, kompozitsiya, qog’oz, qalam, obrubovka, san’at, tasvir, ko’z yoshi qopchig‘i, ko’z, quloq, burun, simmetriya

**Key words:** collage, composition paper, pencil, eraser, art, image, tear sac, eye, ear, nose, symmetry



**Ключевые слова:** коллаж, композиционная бумага, карандаш, ластик, искусство, изображение, слезный мешок, глаз, ухо, нос, симметрия.

Qalamtasvirning asosiy vazifalaridan biri bu yoshlarda tasvirlash mahoratini, o‘z iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirib borishi natijasida yuzaga kelgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. U talabadan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan to‘g‘ri foydalana olishni ko‘zda tutadi

Qog‘oz yoki mato sathida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan to‘g‘ri tasvirlash uchun tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo‘llash - naturaga, shuningdek, xotira va tasavvurga asoslanib, rasm chizishni o‘rganish zarur. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun inson rassomchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi va o‘z ustida uzlusiz, betinim ishlashi hamda ushbu iqtidorni rivojlantirib borish talab etiladi.

“Rasm chizishga o‘rgatish, bu – bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- narsani o‘ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o‘zaro solishtirish;
- jismlarni shakli, rangi, materiallik xususiyati bo‘yicha farqlay bilish;
- rasm chizish mashg‘ulotlarida e’tiborli bo‘lish, fikrlab, jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatish [1].


Qalamtasvir boshqa san’at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san’at asari ham bo‘lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko‘plab kartinalar jahonning turli san’at muzeyi va ko‘rgazmalaridan joy olgan. Qalamtasvir mashg‘ulotlarini ko‘rib-kuzatib to‘g‘ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo‘l, ong va sezgi a’zolarini shakllantirishda, nafaqat, bo‘lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir. Tasviriy san’at sohasida amaliy jihatdan mahoratni shakllantirish jarayoni naturani hayotiy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Bu haqda ko‘plab ilmiy maqolalar, o‘quv adabiyotlari va risolalar yozilgan bo‘lib, qadimgi Uyg‘onish davridayoq rassom-ijodkorlar o‘zlarining dunyoga mashhur san’at asarlari va metodik izlanishlari orqali o‘z fikrlarini bayon etishgan.



Talaba shaklni to‘g‘ri tasvirlash uchun, avvalambor, uning o‘ziga xos tomonlarini aniq tasavvur etish va ko‘rishni o‘rganishi kerak. Yosh va boshlovchi rassom uchun bu oson ish emas va doimiy ravishda nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni talab qiladi.

“Bu haqda N.N.Rostovsev o‘zining «Odam boshini chizish» asarida inson o‘z qobiliyatini muntazam rivojlantirib borishi, buning uchun tinimsiz izlanishi, iqtidor insonda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmasligi haqida bayon qiladi. «I.Kramskoy yozgan: «Ba’zilar, texnikani qayerdadir, kimningdir hujrasidagi shkaf mixida osilib turadi va kalitini cho‘ntakda saqlab, zarur bo‘lgan paytda kalitni olib texnikadan foydalanish mumkin, deb o‘ylashadi», yoki P.Chistyakov aytganidek: «Iqtidor bilan boshlash va iqtidor bilan tugallash lozim, o‘rtamiyona ishlash zehnsizlikdir», «San’at fan emas, san’atda fandan foydalilanadi, san’at asarida qonunlar va bilimlarni qo‘llay olish kerak, san’at aslida – mahoratdir», degan bo‘lsa, akademik rasm chizish haqida «Fansiz yuqori san’at bo‘la olmagani kabi, uning texnikasi ham yuqori, keraklicha rivojlangan, to‘g‘ri ilm-fan yo‘liga boruvchi, chaqqon, harakatchan, vaqtida va joyida qo‘llaniladigan bo‘lishi zarur. San’atda texnikaga qonunan ruxsat beriladigan masalaga qaragandek qarash – oliyjanoblikdir», degan bo‘lsa, italiyalik rassom Chennino Chennini o‘zining «Musavvirlar haqida risola»sida «Hamisha, bir kun ham qoldirmasdan, biror narsa chiz, maqsadga yetishish uchun ahamiyatsiz narsa yo‘q bo‘lgani kabi, bu ham senga katta foyda olib keladi», deb yozadi.”[2]

Tirik odam boshini chizishda talaba alohida bir qancha murakkab shakllar tuzilmasidan eng muhimini ajratib olish vazifasi turadi. Ko‘pchilik talabalar odam boshi rasmini chizar ekanlar, ishda uslubiy ketma-ketlikka rioya qilishmaydi, darhol murakkab vazifalarni bajarishga kirishadi va tez orada muvaffaqiyatsizlikka uchrashadi. Yaholanki, bosh rasmi ustida ishslashning uslubiy bosqichlari ham o‘ziga xos xususiyatlarga egaki, ularni rasm chizuvchi, albatta, bilishi kerak.(1-rasm)




1-rasm

O‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirib olish uchun chizuvchi ushbu ish bosqichida muayyan darajada qaysi vazifani amalga oshirishi, tasvir qurishning qaysi jihatlariga alohida e’tiborni jalb qilishi kerakligini tasavvur etishi zarur. Bunday talaba naturani kuzatuv va tahlil jarayoni hamda uning rasmni konstruktiv chizish - qurish jarayonida aniq tizimga rioya qilishi kerak.

Bosh shakli tasviri qog‘ozga qalam bilan juda yengil chiziqlarda belgilanib, nozik, umumiy va chiziqli konstruktiv tarzda aks ettiriladi hamda natura katta shakli umumiy qurilishning asosiy xususiyati ochiladi. Chunki qora chiziqlar xatolarni ko‘ra bilishni qiyinlashtiradi. Bu xatolarni tuzatish esa, undan-da mushkul.

Talaba bosh shaklini tahlil qilar va uni ifoda etar ekan, u avvalo, shaklning umumiy massasini, uning xususiyatini, mutanosiblik, o‘lchamlararo nisbatlarini belgilab, uni yuzaga chiqarishi lozim. Bosh shakli va uning umumlashtirilgan ko‘rinishidagi o‘ziga xos qiyofasini ocha borib, boshqa qismlar bilan taqqoslagan holda solishtirish usulidan foydalanishi lozim.




2-rasm [3]

Talaba o‘z qarhisida turgan bosh shaklining umumiy xususiyatini osonroq ilg‘ab olishi uchun ko‘zlarini salgina qisib qarashi kerak, shunda shaklning hamma detallari yo‘qoladi hamda hajmning umumiy massasi ko‘rish maydonida qolib, yaxlit holda idroklanadi. «Obrubovka» bosh shaklini kuzatib va umumiy ko‘rinishini belgilab olib, uning har bir qismiga ozgina ko‘z yogurtirib chiqish kerak. Asosiy yuzalar va boshning umumiy ko‘rinishini aniqlash bilan bir paytda, shu yerning o‘zida boshning turish holati aniqlanadi.

Dastlab boshning old qismini ikki teng va simmetrik qismlarga ajratuvchi profil chizig‘ini belgilab olamiz. Bosh to‘rtdan uch burilishda joylashganligi uchun yuz qismi perspektiv



qisqarishda bo‘ladi. Shu sababli profil chizig‘i perspektiva qonuniyatiga ko‘ra, uzoqdagi qismni qisqarishda (kichik), yaqindagisini esa katta qismlarga ajratishi kerak.



3-rasm

Profil chizig‘ini belgilab oлganimizdan so‘ng, uni teng uch qismlarga bo‘lish kerak. Bunda biz o‘lchamlar mutanosibligining klassik qonuniyatlaridan unumli foydalanamiz. Boshning old qismlari teng uch qismga ajraladi: soch qoplamasi pastki chizig‘idan qosh usti yoylarigacha, qosh usti yoylaridan burun asosigacha va burun asosidan dahan tagigacha. Qosh usti yoylaridan burun asosigacha bo‘lgan kesim ham o‘z navbatida teng uch qismga ajraladi: birinchi (qosh usti yoylaridan) va ikkinchi qism o‘rtasidan ko‘z qismlari chizig‘i o‘tadi, u jag‘ suyagi, ko‘z burchaklari va ko‘z yoshi qopchig‘i chocklarini kesib o‘tadi. Burun asosi o‘rtasidagi kesim ham teng uch qismga ajraladi: birinchi va ikkinchi qismlar o‘rtasidan og‘izning o‘rta chizig‘i o‘tadi, u lablar kesim chizig‘i deb ataladi. Ko‘zlar orasidagi masofa ko‘z kattaligiga teng. Boshning ba’zi bo‘laklari shaklini tasvirlashga hozircha e’tibor bermaymiz. Bu bosqichda faqat ularning joylashgan o‘rnini aniqlaymiz, qismlar va yaxlitlik



nisbatlarining to‘g‘riligini tekshiramiz. Ko‘zlar, burun teshiklari, lablar o‘lchamlarini ham hozircha chiziqchalar yoki nuqtalar bilan belgilab qo‘yamiz, buning o‘zi ularning joylashuvi va kattaligini aniqlash uchun yetarlidir. Profil chizig‘i peshana o‘rtasida qanshar, burun, lab bantlari va dahan o‘rtasidan o‘tadi. Qosh usti yoylari, ko‘zlar kesimi, burun asosi, lab va dahan kesimlari tuxumsimon bosh shakliga asosan bir oz egilgan va yuqoriga qaratilgan. Bu chiziqlarning hammasi parallel bo‘lishi kerak. Agar bu qonuniyatga rioya qilinmasa, perspektivada katta xatolikka yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bunday holni bosh rasmini chizish bo‘yicha yaxshigina tajribaga ega bo‘lgan rassomlarda ham kuzatishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymetov B.B. Qalamtasvir. –T.: Ilm ziyo, 2007, 8-bet.
2. M.B.Axmedova, M.Z.Xasanova “Qalamtasvir” Toshkent IJOD- PRINT 2021, 14-15 b
3. Andrew Loomis “Drawing the head and hands” New – York, The Viking press 22-26 b